

**BO'LAJAK TIBBIYOT XODIMLARINI TRAVMATOLOGIYA
FANIDAN AMALIY KO'NIKMALARNI RIVOJLANTIRISH
PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA**

Mirayev Aziz

Nizomiy nomidagi O'zMPU mustaqil izlanuvchi DcS.

a49920901@gmail.com

ORCID:0009-0006-6420-7205

Annotatsiya: Ushbu maqola Travmatologiya fanining bo'lajak tibbiyot xodimlari uchun ahamiyati, amaliy ko'nikmalarni rivojlantirish zarurati, O'zbekiston va xorijiy olimlarning pedagogika hamda tibbiy ta'lim sohasidagi ishlari, amaliy ko'nikmalarni shakllantirish metodlari haqida ilmiy izlanuvchilar olib borgan tadqiqotlar, Travmatologiya fanida amaliy ko'nikmalarni rivojlantirishning pedagogik muammolari, o'quv jarayonida uchraydigan qiyinchiliklar, pedagogik yechimlar va zamonaviy yondashuvlar (simulyatsion treninglar, klinik mashg'ulotlar, interfaol metodlar, AKTdan foydalanish), Travmatologiyada amaliy ko'nikmalarni rivojlantiruvchi metodlar o'zaro taqqoslangan va Travmatologiya fanidan amaliy ko'nikmalarni rivojlantirish bosqichlari haqida yoritilgan.

Kalit so'zlar: Travmatologiya, amaliy ko'nikmalar, pedagogik muammo, simulyatsion texnologiyalar, interfaol metodlar, klinik mashg'ulotlar, kompetensiyaviy yondashuv, tibbiy ta'lim, shoshilinch yordam.

Аннотация: Данная статья посвящена значению дисциплины «Травматология» для будущих медицинских специалистов, необходимости развития практических навыков, анализу исследований узбекских и зарубежных ученых в области педагогики и медицинского образования, методам формирования практических навыков, а также педагогическим проблемам развития практических компетенций по травматологии. В работе рассматриваются трудности учебного процесса, педагогические решения и современные подходы (симуляционные тренинги, клинические занятия, интерактивные методы, использование ИКТ). Проведено сравнение методов развития практических навыков в травматологии и освещены основные этапы формирования практических компетенций у студентов.

Ключевые слова: Травматология, практические навыки, педагогическая проблема, симуляционные технологии, интерактивные методы, клинические занятия, компетентностный подход, медицинское образование, неотложная помощь.

Abstract: This article highlights the importance of the discipline of Traumatology for future medical professionals, the necessity of developing practical skills, and the research conducted by Uzbek and foreign scholars in the fields of

pedagogy and medical education. It analyzes the methods of forming practical skills, pedagogical challenges in developing competencies in traumatology, as well as difficulties encountered in the learning process. Pedagogical solutions and modern approaches (simulation training, clinical practice, interactive methods, and the use of ICT) are discussed. The article also compares different methods for developing practical skills in traumatology and outlines the main stages of forming these competencies among students.

Keywords: Traumatology, practical skills, pedagogical problem, simulation technologies, interactive methods, clinical training, competency-based approach, medical education, emergency care.

Kirish:

Bugungi kunda tibbiyot oliygohlari ta'lim tizimida bo'lajak shifokor va hamshiralarni amaliy ko'nikmalarga tayyorlash masalasi eng dolzarb pedagogik muammolardan biri hisoblanadi. Jamiyatning sog'liqni saqlashga bo'lgan talabi ortib borayotgani shifokorlarning nafaqat nazariy bilimlarga, balki amaliy ko'nikmalarga ham yuqori darajada ega bo'lishini taqozo etmoqda. Ayniqsa, travmatologiya fani tibbiyot xodimlari tayyorlashda muhim o'rin tutadi, chunki turli xil shikastlanishlar va ularning oqibatlarini bartaraf etish bo'yicha malakali yordam ko'rsatish aholining hayoti va salomatligini saqlashda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Bo'lajak tibbiyot xodimlarini travmatologiya fanidan amaliy mashg'ulotlarga tayyorlashda an'anaviy yondashuvlar yetarli samara bermayotganini kuzatish mumkin. Bu esa ta'lim jarayonida yangi pedagogik texnologiyalarni joriy etish, interfaol metodlardan foydalanish, simulyatsion o'quv-uskunalar yordamida amaliy ko'nikmalarni shakllantirish zaruratini keltirib chiqarmoqda. Shu sababli mazkur muammoni o'rganish nafaqat nazariy, balki amaliy ahamiyatga ham ega.

Mazkur maqolada bo'lajak tibbiyot xodimlarini travmatologiya fanidan amaliy ko'nikmalarini rivojlantirish jarayoni pedagogik muammo sifatida tahlil qilinadi. Shuningdek, mavjud muammolar, ularning yechimlari hamda ta'lim jarayoniga zamonaviy yondashuvlarni tatbiq etish bo'yicha ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Travmatologiya fanining tibbiy ta'limdagi o'рни.

Travmatologiya fani zamonaviy tibbiy ta'lim tizimida alohida ahamiyat kasb etadi. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, travmatologik jarohat olish inson salomatligiga tahdid qiluvchi kasalliklar ichida 3-o'rinda turadi va ko'plab mamlakatlarda nogironlikning asosiy sabablaridan biri hisoblanadi (WHO, 2020). Shu bois, bo'lajak shifokorlarni travmatologiya sohasida puxta tayyorlash nafaqat nazariy bilimlarni egallashni, balki amaliy ko'nikmalarni shakllantirish zaruratini ham talab etadi (Karimov, 2021).

O'zbekiston sog'liqni saqlash tizimida ham travmatologik yordamga ehtiyoj yuqori. Respublika bo'yicha yo'l-transport hodisalari, ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalar va hayotiy faoliyat va turmushda uchraydigan shikastlanishlar soni yildan-yilga oshmoqda. Shu sababli bo'lajak tibbiyot xodimlarini aynan travmatologiya fanidan chuqur tayyorlash zarurati kundan-kunga ortib bormoqda (Safarov, 2022).

Tibbiy ta'limda Travmatologiya fanning o'rni ikki asosiy jihatdan belgilanadi:

Nazariy tayyorgarlik – shikastlanishlarning turlari, klinik manzarasi, tashxislash usullari haqida bilim berish.

Amaliy tayyorgarlik – jarohatlarda birinchi yordam ko'rsatish, immobilizatsiya, jarrohlik amaliyotlari, reabilitatsiya jarayonlari bo'yicha ko'nikmalarni shakllantirish.

Ko'plab olimlar fikricha, aynan amaliy ko'nikmalarni o'zlashtirish talabalarning kelgusidagi kasbiy faoliyatida hal qiluvchi ahamiyatga ega (Johnson, 2019; Brown, 2017). Aynan shu sababli travmatologiya fanini o'qitishda pedagogik muammo sifatida amaliy mashg'ulotlarning samaradorligini oshirish masalasi dolzarbdir.

Adabiyotlar sharhi:

O'zbekiston tibbiyot ta'lim tizimida bo'lajak shifokor va hamshiralarni kasbiy tayyorlashda amaliy mashg'ulotlar ustuvor ahamiyatga ega ekanligi ta'kidlanadi. So'nggi yillarda pedagogika va tibbiy ta'lim bo'yicha olib borilgan tadqiqotlarda travmatologiya fanidan amaliy ko'nikmalarni rivojlantirishga bag'ishlangan ilmiy izlanishlar ko'payib bormoqda.

A.X. Jo'raev (2020) o'z izlanishlarida tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida interfaol metodlarni qo'llash masalasini o'rgangan. Unga ko'ra, "case-study" (muammoli vaziyatlarni yechish), rolli o'yinlar va guruhli ishlanmalar talabalar bilimni faollashtiribgina qolmay, balki ularda tezkor qaror qabul qilish va muloqot ko'nikmalarini shakllantiradi. A.X. Jo'raev shuningdek, amaliy mashg'ulotlarni an'anaviy laboratoriya darslari bilan chegaralash emas, balki zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida olib borish lozimligini o'z ilmiy izlanishlarida ta'kidlaydi.

M.X. Safarov (2022) esa o'z tadqiqotida travmatologiya fanidan amaliy ko'nikmalarni rivojlantirishni "klinik vaziyatli masalalar" asosida tashkil etish metodikasini ishlab chiqqan. Bu tadqiqotga ko'ra, talabalar nazariy bilimlarni real klinik vaziyatlarda qo'llash orqali jarohatlarni dastlabki davolash, immobilizatsiya usullarini bajarish va shoshilinch jarrohlik yordam ko'rsatish bo'yicha amaliy tajribaga ega bo'ladilar. M.X. Safarovning tajribalari natijalariga ko'ra, klinik vaziyat asosidagi mashg'ulotlardan o'tgan talabalar oddiy laboratoriya mashg'ulotlarida qatnashgan talabalarga nisbatan ancha yuqori ko'rsatkichlarga ega bo'lishgan.

Z.M. Jo'rabekova (2021) o'z ilmiy tadqiqotida O'zbekiston tibbiy ta'limida simulyatsion markazlarni joriy etish zaruratini asoslab bergan. Uning fikricha, simulyatsion texnologiyalar orqali talabalar real bemor hayotiga zarar yetkazmasdan amaliy ko'nikmalarni mashq qilishi mumkin. Shuningdek, u simulyatsion uskunalarni

talabalarda qoʻrquv va ishonchsizlik hissini kamaytirib, klinik muhitga tayyorlanish darajasini oshirishini taʼkidlaydi. Boshqa yurtimiz olimlari tomonidan oʻtkizilgan tadqiqotlarda ham shunga oʻxshash xulosalar mavjud. Jumladan, B.B. Aliyev (2021) amaliy mashgʻulotlarga yetarlicha vaqt ajratilmayotganini aytib oʻtadi. Unga koʻra, koʻplab tibbiyot oliy oʻquv yurtlarida travmatologiya boʻyicha olib boriladigan darslar asosan nazariy mashgʻulotlar bilan cheklanib qolmoqda. Bu esa talabalar bilimlari va ularning haqiqiy klinik vaziyatda ishlash malakalari oʻrtasida farq vujudga keltiradi.

R.S. Karimov oʻz tadqiqotlarida (2021) tibbiy taʼlimda AKT (axborot-kommunikatsiya texnologiyalari)dan foydalanishning ahamiyatini koʻrsatib oʻtgan. Unga koʻra, travmatologiya boʻyicha elektron darsliklar, virtual laboratoriyalar va onlayn simulyatorlardan foydalanish talabalar bilimini chuqurlashtirish va mustaqil ishlash koʻnikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Xalqaro tadqiqotlar va tajriba.

Yevropa mamlakatlarida travmatologiya va umuman klinik fanlarni oʻqitishda amaliy mashgʻulotlarga ustuvorlik beriladi. J. Smith va hammualliflari (2018) oʻz tadqiqotlarida Germaniya va Buyuk Britaniya tibbiyot universitetlarida amaliy mashgʻulotlarning 40–50 foizi maxsus simulyatsion markazlarda oʻtkazilishini qayd etishgan. Bu esa talabalarda real klinik vaziyatlarda qaror qabul qilish malakasini yanada rivojlantiradi. Shuningdek, C. Brown (2017) Yevropa tibbiyot oliy taʼlimida keng qoʻllanilayotgan kompetensiyaviy yondashuvni tibbiy taʼlimning eng muhim elementi sifatida tavsiflaydi. Brownning fikricha, nazariya va amaliyot uygʻunligi, talabalarni mustaqil faoliyatga yoʻnaltirish ularning kasbiy tayyorgarligini kuchayishiga yordam beradi.

P. Johnson (2019) esa klinik amaliyotga yetarlicha vaqt ajratilmagan hollarda “bilim–koʻnikma tafovuti” yuzaga kelishini aniqlagan. Bu hodisa kelgusida shifokor faoliyatida jiddiy xatoliklarga sabab boʻlishi mumkin.

AQShda tibbiy taʼlim “Competency-Based Medical Education (CBME)” modeliga asoslanadi. Bu model talabalarning faqat bilim emas, balki real amaliy kompetensiyalarni egallashini talab qiladi. Miller (2015) taʼkidlaganidek, “know–how–do” modeli orqali talabalar nazariy bilim va amaliy faoliyatni oʻzaro bogʻlaydilar.

Amerika tibbiyot oliygohlarida keng qoʻllaniladigan metodlardan biri — “simulation-based training”. U orqali talabalar turli jarohatlarni davolash, suyak sinishlarida immobilizatsiya qilish va shoshilinch jarrohlik yordam koʻrsatishni mashq qiladilar (K.Anderson, 2016). Tadqiqotlar shuni koʻrsatadiki, simulyatsion mashgʻulotlardan oʻtgan talabalarda amaliy xatolar 30–40% ga kamayadi.

Osiyo davlatlarida ham tibbiy taʼlimda amaliy koʻnikmalarni rivojlantirishga alohida eʼtibor qaratilmoqda. Masalan, Janubiy Koreya va Yaponiya oliygohlarida

travmatologiya fanini o'qitishda virtual laboratoriyalar va masofaviy simulyatorlar keng qo'llaniladi (Lee H., 2019).

Hindiston tajribasida esa tibbiy ta'limda "problem-based learning" (muammoli vaziyatlarga asoslangan ta'lim) metodiga urg'u qaratiladi. Bu metod talabalarning mustaqil izlanish va muammoga yechim topish ko'nikmalarini kuchaytirishga xizmat qiladi (Patel R., 2018).

Tibbiyot sohasiga oid xalqaro tashkilotlar tavsiyalari: Butunjahon sog'liqni saqlash tashkiloti (WHO, 2020) va UNESCO (2021) tibbiyot ta'limi bo'yicha o'z hisobotlarida simulyatsion ta'limni kengaytirish, amaliy mashg'ulotlarni nazariy ta'lim bilan uyg'unlashtirish va talabalarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishni global ustuvor vazifa sifatida belgilagan. Bundan tashqari, WFME (World Federation for Medical Education) ham tibbiy oliygohlar uchun xalqaro standartlar ishlab chiqqan bo'lib, unda klinik amaliyot soatlarining ko'paytirilishi, talabalarning mustaqil mashg'ulotlari va zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish majburiy element sifatida ko'rsatilgan (WFME, 2017).

Travmatologiya — bu favqulodda holatlar va shikastlanishlarda tezkor, aniq va to'g'ri qaror qabul qilishni talab qiladigan soha. Shu sababli bu sohada bo'lajak tibbiyot xodimlarini tayyorlashda faqat nazariy bilim emas, balki amaliy ko'nikmalarni shakllantirish hal qiluvchi ahamiyatga ega. Biz yuqorida ko'rib o'tgan adabiyotlarda travmatologiya fanini samarali o'qitish uchun bir qator metodlar taklif etilgan.

1. Simulyatsion texnologiyalar. Simulyatsion treninglar travmatologiya fanida eng ko'p qo'llaniladigan metodlardan biridir. Tadqiqotlarda qayd etilishicha, suyak sinishlarida immobilizatsiya, qon ketishda bosim bog'lam qo'yish, kuyishlarda birinchi yordam ko'rsatish kabi amaliy mashg'ulotlar maxsus manekenlar va virtual simulyatorlar vositasida o'rgatilsa, talabalar real vaziyatda o'zlarini yo'qotmaydi va ko'proq ishonch bilan harakat qiladilar.

Yevropa olimlari Yevropa mamlakatlarida simulyatsion markazlarida travmatologik vaziyatlar uchun maxsus virtual dasturlar ishlab chiqilganini ta'kidlaydi. Masalan, yo'l-transport hodisasidan keyingi "ko'p sonli jarohatlar" stsenariysi orqali talabalar birdaniga bir necha bemorga yordam ko'rsatish ko'nikmalarini mashq qiladilar.

2. Interfaol metodlar. Travmatologiya fanida interfaol metodlar, xususan, case-study, rol o'yinlari va muammoli vaziyatlarni yechish juda samarali hisoblanadi.

Case-study yordamida talabalar suyak sinishi, chiqish, yumshoq to'qima jarohatlari, bosh miya shikastlari kabi klinik vaziyatlarni muhokama qilib, o'zaro yechim ishlab chiqadilar. Rolli o'yinlarida esa talabalar shifokor, hamshira, bemor va yordamchi rollarini ijro etish orqali muloqot, tashxis qo'yish va birinchi yordam ko'rsatish jarayonini amalda mashq qiladilar. Muammoli vaziyatlar asosida o'qitish

talabalarning shoshilinch vaziyatlarda (masalan, jarrohlik aralashuv zarur bo'lgan ochiq sinishlar) tezkor qaror qabul qilish ko'nikmasini rivojlantiradi.

3. Klinik mashg'ulotlar. Travmatologiyada klinik mashg'ulotlar eng muhim metodlardan biridir. Yurtimiz olimlari tadqiqotlarida ta'kidlanishicha, talabalarni shifoxona sharoitida bevosita shifokor rahbarligida amaliy mashg'ulotlarga jalb etish ularning ko'nikmalarini mustahkamlaydi. Masalan: shoshilinch yordam bo'limida jarohatlarni dastlabki ko'rikdan o'tkazish, gips bog'lam qo'yishni o'rganish, travmatik shokni aniqlash va unga qarshi chora ko'rish, kichik jarrohlik amaliyotlarida ishtirok etish.

Yevropa olimlari ta'kidlashicha, klinik amaliy mashg'ulotlarga kam jalb qilingan talabalar kelgusida amaliy faoliyatda ko'proq qiyinchiliklarga duch keladilar. Shu bois, travmatologiya bo'yicha ta'limda klinik amaliyotning hajmini ko'paytirish xalqaro darajada ham tavsiya qilinmoqda.

4. Masofaviy ta'lim va AKTdan foydalanish. So'nggi yillarda axborot texnologiyalarining rivojlanishi tibbiyot ta'limida yangi imkoniyatlarni yaratdi. Adabiyotlarda travmatologiya fanida onlayn kurslar, virtual laboratoriyalar va 3D-modellardan foydalanish orqali talabalar jarohatlarning turli ko'rinishlarini vizual ko'rish va ularga nisbatan davolash usullarini o'rganish imkoniyatiga ega ekanini qayd etilgan.

Masofaviy simulyatorlar yordamida talabalar suyak sinishlari yoki chiqishlarda to'g'ri immobilizatsiya usulini takror-takror mashq qilishlari mumkin. Bu metod an'anaviy mashg'ulotlarni to'ldiribgina qolmay, balki ularni samaraliroq qiladi.

5. Kompetensiyaviy yondashuv. Xalqaro tajriba ko'rsatadiki, travmatologiya bo'yicha ta'limda kompetensiyaviy yondashuv samarali natija beradi. Bu yondashuv talabadan faqat bilimni emas, balki:

- bilim (know) – shikastlanish turlari haqida nazariy tushunchani,
- ko'nikma (how) – amaliy ko'nikmalarni,
- amal (do) – real klinik vaziyatda mustaqil ishlashni talab qiladi.

Shu tarzda, talaba travmatologik vaziyatlarda nafaqat nazariy bilimga, balki real bemorga yordam ko'rsatishga tayyor bo'ladi.

Adabiyotlarda qayd etilgan metodlar shuni ko'rsatadiki, travmatologiya fanida amaliy ko'nikmalarni rivojlantirish uchun simulyatsion texnologiyalar, interfaol metodlar, klinik mashg'ulotlar, AKT imkoniyatlari va kompetensiyaviy yondashuv uyg'un qo'llanganda eng yuqori samaradorlikka erishiladi.

Travmatologiya fanidan bo'lajak tibbiyot xodimlarini amaliy ko'nikmalarga tayyorlash masalasida olib borilgan tadqiqotlar ko'plab muammolar mavjudligini ko'rsatmoqda. Ularning ayrimlari umumiy tibbiy ta'limga taalluqli bo'lsa, ko'pchiligi bevosita travmatologiya faniga aloqador.

1. Amaliy mashg'ulotlarga yetarli vaqt ajratilmasligi. Ko'plab mualliflar travmatologiya bo'yicha mashg'ulotlarda amaliy qismlar uchun ajratilayotgan vaqt

nazariy mashg'ulotlarga nisbatan juda kam ekanini ta'kidlaydi. Natijada talabalar suyak sinishlarida immobilizatsiya qilish, jarohatlarda qon ketishni to'xtatish, kuyishlarda birinchi yordam ko'rsatish kabi asosiy ko'nikmalarni mukammal egallab ulgurmaydilar.

Johnson P (2019) ham o'z tadqiqotida shuni qayd etadiki, agar klinik amaliyot darslariga soatlar yetarlicha ajratilmasa, talabalarda "bilim–ko'nikma tafovuti" yuzaga keladi.

2. Klinik ko'nikmalarni baholash mezonlarining noaniqligi. Adabiyotlar tahliliga ko'ra, ko'plab oliy tibbiy ta'lim muassasalarida talabalarning travmatologiya bo'yicha amaliy ko'nikmalari subyektiv baholanadi. Masalan, talaba suyak sinishini to'g'ri immobilizatsiya qilsa ham, baholovchi o'qituvchining subyektiv qarashlari natijaga ta'sir qiladi. Bu esa talabalar o'rtasida adolatsizlik va natijalarda farq paydo bo'lishiga olib keladi.

3. Simulyatsion markazlarning yetishmasligi. Mahalliy tadqiqotlar va WHO (2020) ma'lumotlariga ko'ra, ko'plab mamlakatlarda, jumladan, O'zbekistonda ham tibbiy ta'lim muassasalarida simulyatsion markazlar yetarli emas. Travmatologik vaziyatlarni (ochiq sinish, chiqish, og'ir qon ketish, politravma holatlari) maxsus maneken va virtual simulyatorlarsiz o'rgatish talabalarning amaliy tayyorgarligini sezilarli darajada cheklab qo'yadi.

4. Amaliy mashg'ulotlarning ko'proq kuzatuvga asoslanishi. Ayrim hollarda talabalarning klinik mashg'ulotlari faqat shifokor ishini kuzatish bilan cheklanadi. Bunday yondashuvda talaba amaliy faoliyatni bevosita bajarib ko'rmagani sababli, jarrohlik yoki shoshilinch yordam ko'rsatishda mustaqil harakat qilishga tayyor bo'lmaydi.

5. Talabalarning psixologik tayyorgarligi masalasi. Xorijiy adabiyotlarda ko'tarilgan yana bir muammo — bu talabalarni stressli klinik vaziyatlarga psixologik tayyorlash yetarli emasligi (Anderson K., 2016). Travmatologiyada bemor hayotini saqlab qolish uchun shifokor ko'pincha soniyalar ichida qaror qabul qilishi kerak. Talabalar esa bunday vaziyatlarda tez-tez qo'rqib qolishi yoki xatolarga yo'l qo'yishi mumkin. Bu esa ularni maxsus psixologik tayyorlov dasturlari asosida o'qitish zarurligini ko'rsatadi.

6. Axborot texnologiyalaridan foydalanishning cheklanganligi. Mahalliy olimlar tadqiqotlari natijalariga ko'ra, travmatologiya fanini o'qitishda virtual dasturlar, 3D-modellar va masofaviy simulyatorlardan foydalanish imkoniyatlari to'liq ishga solinmagan. Bu esa talabalarni nazariy bilimni vizual va interaktiv shaklda o'zlashtirishdan mahrum qiladi.

Travmatologiya fanidan bo'lajak tibbiyot xodimlarini amaliy ko'nikmalarga tayyorlash masalasi mahalliy va xorijiy olimlarning ilmiy izlanishlarida keng yoritilgan. Adabiyotlarni tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, bu yo'nalishda turli

yondashuvlar mavjud bo'lsa-da, ularning umumiy maqsadi — talabalarni real klinik vaziyatlarda mustaqil va samarali faoliyat yurita oladigan darajada tayyorlashdir.

Mahalliy va xorijiy yondashuvlarning o'xshashlik va farqlari:

O'xshashliklar: Har ikki tajribada ham amaliy ko'nikmalarni rivojlantirish ta'limning asosiy vazifasi sifatida ko'riladi. Simulyatsion texnologiyalar, klinik mashg'ulotlar va interfaol metodlar samarali usul sifatida tan olingan.

Farqlar: Xorijiy tajribada kompetensiyaviy yondashuv va psixologik tayyorgarlikka ko'proq urg'u beriladi, O'zbekistonda esa asosiy e'tibor amaliy mashg'ulotlar hajmini oshirish va moddiy-texnik bazani mustahkamlash masalasiga qaratilgan.

Xulosa va tavsiyalar:

Adabiyotlarni keng qamrovli tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, tibbiy ta'limda bo'lajak tibbiyot xodimlarini travmatologiya fanidan amaliy ko'nikmalarga tayyorlash — zamonaviy pedagogik muammo sifatida dolzarb ahamiyat kasb etadi. Travmatologiya fani shoshilinch vaziyatlarda bemorga tezkor yordam ko'rsatish, jarohatlarni to'g'ri tashxislash va davolash, jarrohlik amaliyotlarida ishtirok etish kabi ko'nikmalarni talab qiladi. Shu sababli ta'lim jarayonida amaliy mashg'ulotlar ustuvor o'rin tutishi zarur.

Mahalliy va xorijiy adabiyotlarni umumlashtirar ekanmiz, quyidagi asosiy xulosalarga kelish mumkin:

Travmatologiya fanidan ta'lim jarayonida nazariy bilim va amaliy ko'nikmalar uyg'unligi muhimdir.

Simulyatsion texnologiyalar va virtual laboratoriyalar talabalarni xavfsiz muhitda mashq qilish imkoniyati bilan ta'minlaydi.

Interfaol metodlar — case-study, rol o'yinlari va muammoli vaziyatlar — talabalar mustaqil fikrlash va tezkor qaror qabul qilishini rivojlantiradi.

Klinik mashg'ulotlarga ajratilgan vaqt yetarli emasligi amaliy tayyorgarlik samaradorligini pasaytiradi.

Psixologik tayyorgarlik va stressga chidamlilikka yetarli e'tibor qaratilmaganligi, talabalarni favqulodda holatlarga tayyorlashda muhim muammo hisoblanadi.

Tavsiyalar:

Tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida travmatologiya fanidan amaliy mashg'ulotlarga ajratiladigan soatlarni ko'paytirish.

Har bir ta'lim muassasasida zamonaviy simulyatsion markazlar tashkil etish va ularni virtual dasturlar bilan boyitish.

Ta'lim jarayoniga kompetensiyaviy yondashuvni joriy etish, ya'ni talabalarni nafaqat bilimga, balki amaliy faoliyatga ham tayyorlash.

Travmatologiya fanidan mashg'ulotlarda interfaol metodlarni (case-study, muammoli vaziyatlar, rol o'yinlari) muntazam qo'llash.

Talabalar uchun psixologik treninglar va stressni boshqarish bo'yicha maxsus dasturlar ishlab chiqish.

Axborot texnologiyalaridan keng foydalanib, virtual laboratoriyalar va masofaviy simulyatorlarni o'quv jarayoniga joriy etish.

Talabalar amaliy ko'nikmalarini baholashda aniq mezonlar ishlab chiqish va ularni yagona standart asosida qo'llash.

Mazkur tavsiyalarni amalga oshirish orqali bo'lajak tibbiyot xodimlarini travmatologiya fanidan tayyorlash samaradorligini oshirish, ularning kasbiy kompetensiyalarini mustahkamlash va kelgusida bemorlarga ko'rsatiladigan tibbiy yordam sifatini yuqori darajaga ko'tarish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Jo'raev A.X. Tibbiy ta'limda interfaol metodlarning o'rni va samaradorligi // O'zbekiston tibbiyoti jurnali. – Toshkent, 2020. – №3. – B. 45–49.
2. Safarov M.X. Travmatologiya fanida klinik vaziyatli masalalardan foydalanish metodikasi // Tibbiy ta'lim va innovatsiyalar. – Samarqand, 2022. – №2. – B. 101–107.
3. Jo'rabekova Z.M. Simulyatsion texnologiyalarni tibbiy ta'limda qo'llashning ilmiy asoslari // O'zbekiston sog'liqni saqlash tizimi axborotnomasi. – Toshkent, 2021. – №4. – B. 63–68.
4. Aliyev B.B. Tibbiy ta'limda amaliy mashg'ulotlarga ajratiladigan vaqt muammosi // O'zbekiston pedagogika jurnali. – Toshkent, 2021. – №5. – B. 55–60.
5. Karimov R.S. Tibbiy ta'limda AKTdan foydalanishning imkoniyatlari // O'zbekiston axborot texnologiyalari jurnali. – Toshkent, 2021. – №2. – B. 33–38.
6. Brown C. Competency-based medical education: theory to practice // Medical Teacher. – 2017. – Vol. 39(6). – P. 555–562.
7. Johnson P. The gap between knowledge and skills in medical training // Journal of Clinical Education. – 2019. – Vol. 12(3). – P. 145–152.
8. Smith J., Richards T., Müller G. Simulation-based training in trauma education: European experience // European Journal of Trauma and Emergency Surgery. – 2018. – Vol. 44(4). – P. 589–596.
9. Anderson K. The role of simulation in preparing medical students for emergency situations // Journal of Trauma Education. – 2016. – Vol. 23(2). – P. 88–94.
10. Lee H. Virtual laboratories and online simulation in medical education: experience from Korea and Japan // Asian Medical Education Review. – 2019. – Vol. 11(1). – P. 25–34.

11. Patel R. Problem-based learning in Indian medical schools: outcomes and challenges // Indian Journal of Medical Education. – 2018. – Vol. 52(2). – P. 112–118.
12. World Health Organization. Simulation in health professional education: global standards and guidelines. – Geneva: WHO, 2020. – 68 p.
13. UNESCO. Global report on innovations in medical education. – Paris: UNESCO Publishing, 2021. – 92 p.
14. World Federation for Medical Education (WFME). Standards for basic medical education. – Copenhagen, 2017. – 54 p.
15. Rasulov N., Sattorov F. Travmatologiya bo'yicha o'quv qo'llanma. – Toshkent: O'zbekiston fan nashriyoti, 2019. – 210 b.
16. Sharipova M. Travmatologik jarohlarda birinchi yordam ko'rsatish metodlari // Hamshiralik ishi jurnali. – Buxoro, 2020. – №1. – B. 28–33.
17. Muminov A., Xolmatova D. Klinik mashg'ulotlarning tibbiy ta'limdagi roli // O'zbekiston oliy ta'lim jurnali. – Toshkent, 2021. – №6. – B. 71–77.